

## OILAVIY MUNOSABATLARDA DESTRUKTIV NIZOLARNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Ishonkulova Norbiye Islomovna*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya kafedrasи  
o'qituvchisi*

**Tel: 933571441 [norbiyiishonkulova@mail.ru](mailto:norbiyiishonkulova@mail.ru)**

**Annotatsiya.** Maqolada oilaviy munosabatlarda destruktiv psixologik nizolarning shakllanish omillari, nizolarning yuzaga kelishi, tinch yo'l bilan hal etilmagan mojarolar janjal va norozilikka olib kelishi va eksperimental ma'lumotlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Oilaviy munosabatlar, destruktiv, nizo, mojaro, norozilik.

**Аннотация.** В статье освещены факторы формирования деструктивных психологических конфликтов в семейных отношениях, возникновение конфликтов, как неразрешенные мирным путем конфликты приводят к ссорам и недовольству, экспериментальные данные.

**Ключевые слова.** Семейные отношения, деструктивные, конфликтные, конфликтные, недовольные.

**Annotation.** The article highlights the factors of the formation of destructive psychological conflicts in family relationships, the emergence of conflicts, how unresolved conflicts lead to quarrels and discontent, experimental data.

**Keywords.** Family relationships, destructive, conflicted, conflicted, dissatisfied.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, barqaror oila aholi iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy ajrimlar esa, aksincha, farzandlar tarbiyasi, oila a'zolari hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatib, keskin ijtimoiy ziddiyatlar va xavf-xatarlarga sabab bo'ladi. Ajrashishlarning mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligiga tahdid solishini e'tiborga olgan holda, ko'plab olimlar ajrashish xavfini orttiruvchi omillarni tadqiq etishga kirishgan. So'nggi yarim asr davomida oila tuzilishining transformatsiyasi, oila barqarorligiga turli ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'sirini tadqiq etishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Ba'zi tadqiqotlar infliyatsiya va ishsizlik kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ajrashishga ta'sirini o'rgangan bo'lsa, boshqalari ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim va boshqa ijtimoiy omillarning ta'sirini baholagan.

Har bir oila hayoti davomida muammoli vaziyatlarga duch keladi, ularni hal qilish qarama-qarshi individual ehtiyojlar, motivlar va manfaatlar kontekstida amalga oshiriladi. Oila a'zolarining qarashlari yoki e'tiqodlari qarama-qarshi bo'lsa, nizo yuzaga kelishi mumkin. Ba'zida odamlar bir-birini noto'g'ri tushunib,

noto‘g’ri xulosaga kelishganda nizolar paydo bo‘lishi mumkin. Tinch yo‘l bilan hal etilmagan mojarolar janjal va norozilikka olib kelishi mumkin.

Oilaviy nizolar haqida so‘z borar ekan, tabiiy bir savol tug’iladi. Inson esini taniganidan otaonaga, atrofdagilarga, tabiatga mehr qo‘yib, ulg’ayganda sevib-sevilib, ezgu niyatlar bilan oila quradi-yu, nega oila qurgandan keyin o‘zaro munosabatlarda nizo-janjallar ro‘y berishi tabiiydir. Oila muhitidagi o‘zaro munosabatlarning asosini tashkil etgan oilaviy rollarga oid tasavvurlar va ularning differensiatsiyasi o‘zining yosh, hududiy va jinsiy xususiyatlariga ega bo‘lib, ular avvalo har bir oilaning ruhiy ma’naviy muhiti, u yerdagi milliy qadriyatlar, an’analar, rasm-rusumlar qanchalik saqlanib qolganligiga ham bog‘liqligi asoslab berilgan. Oilaviy nizolarning shakllanishi va ularning buzilib ketishida er-xotin fe’l- atvorining mos kelmasligi, farzandsizlik, sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi, uning byudjetini oqilona boshqara olmaslik asosiy omillar bo‘lib, ro‘zg‘or ishlarining saranjom-sarishta va orasta emasligi, iqtisodiy ta’mindagi kamchiliklar, rashk va ishonchsizlik, ota-onalarning er-xotin munosabatlara aralashuvi, dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi, jinsiy nomoslik kabi omillar ham oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarni kelib chiqarishda muhim o‘rin tutadi.

D.N.Amirgamzaevaning aytishicha, nizoli xulq - tabiatan noaniq, chunki u yomon va yoqimsiz vaziyatlardan iborat, lekin ba’zida u yaxshi va samarali narsaga olib keladi. Ba’zida nizolar juda foydali, hatto zarur, chunki ular insoniy munosabatlар taraqqiyotining manbalari hisoblanadi. Biroq, oqibati halokatli vaziyatlarga sabab bo‘lganlari mavjud. Shuni ta’kidlash lozimki, inson o‘z hayotini nizoli vaziyatlarda ishtirok etishdan butunlay cheklangan holda qurish mumkin emas, chunki nizolar har qanday joyda va istalgan vaqtda paydo bo‘lishi mumkin.

Z.A.Adjievaning fikrlashicha, nizolar uzoq muddatli xususiyatga ega bo‘lmasligi uchun, ob’ekt va sub’ekt ya’ni nizolashayotgan tomonlar bilan imkon qadar tezroq shug‘ullanish lozim. To‘g’ri harakatlar ikki tomonga ham ziddiyatlarni bartaraf etishga, balki uning oqibatlarini o‘z yo‘nalishiga aylantirishga keng yordam beradi.

Ko‘pgina oilalarda ma’lumot yo‘qligi va bunday yordamga ehtiyoj va huquqni asoslash berishida qiyinchiliklar mavjudligi sababli kam ta’minlangan oilalar uchun ijtimoiy yordam va imtiyozlardan foydalanish imkoniyati mavjud emas. Pul o’tkazmalari oilalarning ehtiyojlarini, xususan, bolalarning psixologik farovonligini to‘liq qondirish uchun yetarli yoki yetarli emasligi tasdiqlanmagan. Ota-onalarning migratsiyasi sababli, nazoratsiz qolgan bolalar oilaning buzilishi oqibatlaridan jabr chekishi, yetarlicha g‘amxo‘rlik ko‘rmasligi, nazoratsizlik oqibatida turli zararli oqimlar ta’siriga tushib qolishi mumkin.

Xalqaro tajribada oilaviy muammolarni hal qilish, ajrimlarning oldini olish, bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlash maqsadida mahalliy hamjamiyat tomonidan mediatorlar ishtirokida mediatsiya yarashtirish dasturlari, oilaviy guruhli konferensiyalar kabi bolalar va oilalar bilan ishlashning innovatsion metodi samarali qo'llanilmoqda.

Bolaning o'sishi va rivojlanishi uchun optimal shart u o'zini himoyada his etadigan ishonchli oila hisoblanadi. Migrant ota-onalarning 62,6 foizini otalar, 9,6 foizini onalar va 24,9 foizini ota-onaning ikkalasi tashkil etadi. 45 % migrantlar oilalarida kamida ikki farzandi o'z yurtida qoldirib ketilgan, bunda 37 % holatda ota yoki boshqa qarindoshlarga qoldirilgan, bu bolalarning ota-onasi bilan munosabatlariha hamda ularning ijtimoiylashuviga jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi:

- oila a'zolari, ayniqsa, onalar ko'pincha 6 yoshga to'limgan, bolalar rivojlanishining muhim davrida ularini tashlab, migratsiya qilishadi. Ota-onalar, ko'pincha, farzandlarini qoldirayotganida qonun bilan o'rnatilgan tartibda ularga vasiy yoki homiy o'rnatish choralarini ko'rmay ketadi. Ayrimlari farzandini Bolalar uyi, Mehribonlik uylari kabi davlat tarbiya muassasasiga joylashtirish bilan muammoni hal qilishga harakat qiladi;

- bolalar parvarishini o'z zimmasiga olganlarning qariyb 45 foizida kamida ikkitadan farzand bo'lib, 29 foizida uchta yoki undan ko'p, 27 foizida bir nafar bola bo'lgan. Qarovsiz qolgan bolalarga g'amxo'rlik qiluvchilarning eng ko'p foizini ayollar tashkil etib, ulardan 61 foizi onalar, 29 foizi buvilar, 2 foizi otalar va 8 foizi boshqa qarindoshlardan iborat bo'lgan.

Ba'zida kuchli his-tuyg'ular yoki munosabatlarda mavjud bo'lgan kuch nomutanosibligini hal qilish qiyin va faqat maslahat sharoitida hal qilinishi mumkin. Oiladagi nizolarni hal qilish uchun ikki juft tushunishga harakat qilishi kerak. Agar ikkala turmush o'rtog'i bir-birini eshitishga harakat qilsa, unda murosaga kelish mumkin. Bu yerda g'alaba qozonish shart emas, chunki g'alaba mag'lubiyatni anglatadi. Ittifoq - bu qul va xo'jayin emas, balki ikkita teng sheriklarning birlashmasi. Ikki turmush o'rtog'i munosabatlarda qulay bo'lishi kerak, buning natijasida nikoh Ittifoqi buzilmasligi kerak, chunki birovning istaklari bajarilmagan.

Oilaviy nizolarni hal qilishda nafaqat muammolarga yo'l qo'ymaslik, balki ularni hal qilish ham zarur. G'alaba qozonish yoki himoya qilish uchun emas, balki hal qilish maqsadida konstruktiv va xotirjam muloqot qiling. Uchinchi shaxslarni nizoga jalb qilish tavsiya etilmaydi, chunki ular mojaroni keyingi hal qilish uchun katalizator bo'lishi mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, nizoli xulq boshqa bir shaxs yoki guruh qarashlariga zid bo‘lgan istak va xohishlar sifatida ham tan olinadi. Umuman olganda, nizoli vaziyatlar yashash muhitining zaruriy shartlaridan biri bo‘lib, u barcha insonlarga xos xulq –atvor shakli hisoblanadi.

Konfliktlarni hal qilish uchun turli yondashuvlarga ega bo‘lish, ulardan moslashuvchan foydalana olish, odatiy qarashlardan tashqariga chiqish va imkoniyatlarga nisbatan sezgir bo‘lish, yangicha harakatlarni amalga oshirish va nostandard fikrlash muhimdir. Shu bilan birga, siz mojarodan hayot tajribasi, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini anglash manbai sifatida foydalanishingiz mumkin.

Agar keyinroq konfliktga nima sabab bo‘lganini va konfliktli vaziyatda nima bo‘lganini eslash uchun vaqt topsangiz, konfliktlarni mukammal o‘quv materialiga aylantirish mumkin. Shunda siz o‘zingiz haqingizda, mojaroga aloqador odamlar yoki mojaroga sabab bo‘lgan atrofdagi holatlar haqida ko‘proq bilib olishingiz mumkin. Ushbu bilim kelajakda to‘g‘ri qaror qabul qilishga va konfliktlardan qochishga yordam beradi.

### **Adabiyotlar**

1. Ворожейкин И.Е., Кибанов А.Я., Захаров Д.К. Конфликтология. Учебник. М., 2001. С – 98.
2. Коркина Н.А. Отцовство в современной семье // Вопросы психологии – Ч. 1. – С. 117–123.
3. Козловская Г.В., Марголина И.А., Проселкова М.О. Жестокое обращение с детьми раннего возраста и формирование психического дизонтогенеза // Вопросы психического здоровья детей и подростков. – М., 2001. – № 1. – С. 52-55.
4. Кулагина Е. В. Адаптация семей с детьми-инвалидами: Гендерный аспект. – М., 2004. С – 90.
5. Локтаева С. А. Специфика проявления личностных свойств детей в семьях профессиональных военнослужащих: дис. ... кандидата психологических наук: – Москва, 2011. С – 46.
6. Fayziyeva, N. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 149-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9805>